

TARIXIY QAHRAMON YARATISHDA IJODKOR MAHORATI

Go'zal ATABAYEVA,

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti dotsenti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15877990>

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy qahramon obrazini yaratish jarayonida ijodkorning roli, badiiy mahorati hamda tarixiy haqiqat va badiiy to'qima o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhimligi tahlil qilinadi. Tarixiy obrazlar orqali milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish imkoniyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy obraz, badiiy to'qima, yozuvchi mahorati, tarixiy haqiqat, milliy xotira.

Аннотация: В статье анализируется роль творца, художественное мастерство, важность соблюдения баланса между исторической правдой и художественной фактурой в процессе создания образа исторического героя. Подчеркивается возможность понимания национальной идентичности и формирования чувства патриотизма через исторические образы.

Ключевые слова: исторический образ, художественная фактура, мастерство письма, историческая правда, национальная память.

Annotation: This article analyzes the role of the creator, artistic skill, and the importance of maintaining a balance between historical truth and artistic texture in the process of creating the image of a historical hero. The possibility of understanding national identity and forming a sense of patriotism through historical images is highlighted.

Keywords: historical image, artistic texture, writing skill, historical truth, national memory.

Badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan surati badiiy obraz deyiladi. Obraz (*timsol*) tushunchasining keng va tor tushunchalari mavjud. Keng ma'nodagi obraz tushunchasi ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatadi. Tor ma'noda esa badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini ifodalaydi. Obrazda obyektiv anglash bilan subyektiv ijodiy tafakkur qorishib ketadi. Badiiy obrazning o'ziga xos xususiyatlari real voqelikka va fikrlash jarayoniga bo'lgan munosabatda aniq namoyon bo'ladi. Obraz vokelikning badiiy in'ikosi sifatida real mavjud obyektning hissiy aniq, tayin zamon va makonda davom etgan, moddiy tugal, o'zicha yetuk xususiyatlariga ega bo'ladi.

Adabiyot xalq qalbining aks-sadosi, millat ruhining ifodasidir. Ayniqsa, tarixiy obrazlar vositasida xalqning o'tmishi, g'ururi va or-nomusi tasvirlanganda, ijodkor zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Tarixiy qahramon obrazini yaratish – bu oddiy badiiy tasvir emas, balki xalq tarixini san'at bilan uyg'unlashtirish, o'tmish haqiqatini hozirgi zamon bilan bog'lash mahoratini talab etadigan ijodiy jarayon. Tarix xalqning boshidan kechirgan voqealari, g'alabalari va fojialarini o'zida mujassam

etgan ijtimoiy xotiradir. Adabiyot esa shu tarixni badiiy ifoda orqali xalq ongiga yetkazish vositasidir. Ayniqsa, tarixiy shaxslar obrazi vositasida millatning o‘zligiga, o‘tmishiga va madaniy merosiga e’tibor kuchayadi. Shu bois tarixiy qahramon yaratishda ijodkor nafaqat badiiy, balki ilmiy, axloqiy va ma’naviy mas’uliyatni ham o‘z zimmasiga oladi.

Ijodiy yondashuvning o‘ziga xosligi nafaqat zamonaviy qahramon yaratishda balki tarixiy obraz yaratishda ham muhimdir.

Tarixiy qahramon obrazini yaratishda yozuvchi, avvalo, tarixiy manbalarga tayanishi lozim. Tarixiy shaxs hayoti, faoliyati va davr ruhi chuqur o‘rganilmasdan yaratilgan obrazlar soddaligi yoki ishonchsizligi bilan ajralib turadi. Adabiy tanqidiy jarayonda ham bu o‘zini oqlamaydi. Shu nuqtai nazardan olganda, ijodkor tarixiylik va badiiylikning uyg‘unligini ta’minlashi kerak.

Tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima muvozanati tarixiy qahramon yaratishdagi asosiy talablardan hisoblanadi. Tarixiy obraz real shaxsga asoslangan bo‘lsa-da, u adabiy asarda badiiy qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Bu degani, ijodkor faktlarga sodiq qolgan holda, obrazning ichki dunyosini badiiy vositalar orqali yoritadi. Badiiy to‘qima bu haqiqatni chuqurroq anglatish, tarixiy shaxsni hayotiyashtirish, uni o‘quvchiga yaqinlashtirish vositasidir. Misol uchun, Oybekning “Navoiy” romanida shoir va davlat arbobi Alisher Navoiyning murakkab ichki dunyosi, siyosiy pozitsiyasi va ma’naviy olami juda nozik tasvirlangan. Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr” romanidagi Navoiy obrazi esa postmodernda tarixiy obraz yaratish mahoratining o‘ziga xos namunasi hisoblanadi. Tarixiy obraz yaratishda roviy tomonidan taftish etilib, tahlil etilgan qahramon ruhiyati Navoiy obrazining yaratilish jarayonlarini sujetdagi ifodasi ahamiyatga molik.

Tarixiy qahramon obrazini yaratishda yozuvchi yoki shoir tarixiy haqiqatga asoslanishi, bir vaqtning o‘zida badiiy tasvir kuchidan foydalangan holda qahramonni xalq qalbiga yaqinlashtirishi zarur. Bu borada ijodkor ikki yirik vazifani bajaradi: birinchidan, u tarixiy shaxs haqida to‘g‘ri, ishonarli ma’lumotlarni asos qilib oladi; ikkinchidan esa, bu tarixiy shaxsning badiiy obrazini yaratib, unga hayotiylik, xarakter va dramatism bag‘ishlaydi.

Tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima o‘rtasidagi muvozanat ijodkor uchun eng muhim jihatlardan biri bu tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima o‘rtasidagi nozik muvozanatni saqlay bilishdir. Tarixiy voqealar faktlarga asoslangan bo‘lishi kerak, biroq qahramonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, dialoglar va konfliktlar badiiy tasvir orqali yoritiladi. Masalan, Abdulla Qodiriy o‘zining “O‘tkan kunlar” romanida tarixiy sharoitni mohirona tasvirlar ekan, asosiy qahramonlar orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni ochib beradi.

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

Xarakter yaratish san’ati ham tarixiy obrazni gavdalantirishda muhimdir.

Tarixiy qahramon obrazining chinakam muvaffaqiyati bu uning xarakterining chuqur yoritilishidadir. Qahramon faqat tashqi harakatlari bilan emas, balki uning fikrlari, orzulari, qo‘rquvlari va qarorlaridagi murakkablik orqali chinakam tiriklik kasb etadi. Bu yerda ijodkor tafakkuri, psixologik tahlil qilish qobiliyati, til boyligi va uslubiy yondashuvi muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki tarixiy qahramon yaratish bu nafaqat ijodiy jarayon, balki ma’naviy vazifa hamdir. Bunday obrazlar orqali yosh avlod tarixini anglaydi, milliy g‘ururga, vatanparvarlik tuyg‘usiga ega bo‘ladi. Shunday ekan, har bir ijodkor tarixiy qahramon yaratishda halollik, puxta izlanish va san’atga sadoqat bilan yondashishi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
2. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
3. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p. https://www.researchgate.net/publication/375649608_Issues_of_Distribution_of_Bear_Image_in_Uzbek_Novels.
4. Atabayeva G.F. “Zamonamizning tarixiy romani” “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya TDPU 2024.
5. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
6. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma'rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar| Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
7. RAJABOVA, Hulkar. "Qissada ekzistensial qahramon va uning jonzodlar bilan yashash motivi (Shuhrat Matkarimning “Maqar” qissasi misolida)." «ACTA NUUZ» 1.1.2. 1 (2025): 318-320.
8. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.
9. Abdujamilovna, Kalandarova Dilafuz. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
10. Kadirova M.N., Innovative methods for improving the methodology of teaching folklore in literature lessons. AmericanAcademicpublishers, volume05, issue05, 2025. [INNOVATIVE METHODS FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING FOLKLORE IN LITERATURE LESSONS | International journal of artificial intelligence](#)